O'spirinlarda kasbiy tanlov noaniqligi sharoitida mustaqil qarorlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	546
<i>Karimova Gulxumor Shodi qizi</i>	
ChatGPT kabi til modellarining ta'lim va fan sohasiga ta'siri	550
<i>Djabbarova Xabiba Kuvandikovna</i>	
Biologiya ta'limida qo'llaniladigan masala va mashqlarning turlari, mazmuni va kreativlikni rivojlantirishdagi o'rni	554
<i>Yusupova Lobar Nizomjon qizi, Raxmatov Uchkun Ergashevich</i>	
Сравнительный анализ русской и узбекской концептосфер в контексте преподавания РКИ.....	560
<i>Рустамова Феруза Махмуджановна</i>	
Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy madaniyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari	565
<i>Imomov Musurmon Pirnazarovich</i>	
Boshlang'ich ta'limda aksiologik qadriyatlar va raqamli kompetensiyalarni uyg'un rivojlantirish metodikasi.....	572
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ijodkorligini rivojlantirishda klaster integratsiyasi va refleksiv yondashuvning o'rni	576
<i>Shabbazova Nodira Xamzayevna</i>	
Umumta'lim maktablarida immersiv texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish	579
<i>Axmedova Dilnoza Baxtiyor qizi</i>	
Tasviriy san'at ta'limida kompozitsiya o'qitishning takomillashtirilgan metodik tizimi.....	581
<i>Karshiboyeva Dilafuz Boxodirovna</i>	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda refleksiv topshiriqlarning o'rni .	584
<i>Altibayeva Malika Kuvandikovna</i>	
STEAM yondashuvi asosida rivojlantiruvchi markazlarning samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....	587
<i>O'rinova Feruza O'ljayevna, To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	591
<i>Davulov Ozodbek Qalandarovich</i>	
Tasavvufda ma'naviy tarbiya tushunchasi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	595
<i>Satimova Sevinch Sardorbekovna</i>	
Teaching Literary and Non-Literary Forms of Speech to Young Learners.....	600
<i>Nargiza Tulyaganova</i>	
Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni boshqarish tizimini takomillashtirishning metod va mexanizmlari	604
<i>Aziboyev Shuhrat Olimovich</i>	
Cerebral falajli bolalarda sensor, diqqat va motor funksiyalar integratsiyasining faktorli tahlili	608
<i>Karimberdiyev Azamat Axmadjon o'g'li</i>	
O'smirlik davrida emotsional intellektni namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	614
<i>Djumabaeva Manzura Bagibekovna, Zoirova Laylo Alisher qizi, Umirboyeva Zaxro Dilmurod qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim modellari mohiyati va ularning pedagogik tizimdagi o'rni (4K, 5E, 5I modellari misolida).....	617
<i>Raxmatov Uchkun Ergashevich, Qodirova Marjona Azamat qizi</i>	
Ayollarni iqtisodiy faollikka tayyorlashda o'quv dasturlarini loyihalash tamoyillari	624
<i>Diyarova Shaxloxon Rovshan qizi</i>	



Interfaol ta'lim metodlari asosida o'qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi: tajriba-sinov natijalari tahlili	628
Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi	
Raqamli muhitda maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining qo'shimcha ta'limini tashkil etish: tadqiqotlar sharhi	633
Amanova Dilorom Faxritdin qizi	
Kognitiv tilshunoslikda skript atamasi va uning voqelanish mexanizmlari	637
Fayzullayev Shohrux	
The Concept of Blended Learning and its Role in the Modern Educational Paradigm	641
Fozilova Maxina Adashevna	
Finlyandiya boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika fanini o'qitish metodikasi	645
G'aybulloyeva Yulduz Mexriddinovna	
Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish	651
Isoqov Shohruh Turabek o'g'li	
Communicative-Pragmatic Analysis of Binary-Based Paremias in English, Uzbek, and Russian Languages	654
Jumanova Sabrina Vaydullo kizi	
Internet-risk profilaktikasining bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdagi o'rni	659
Mamatxanova Nargiza Toxirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	663
N. Sh. Abdullayeva, F. R. Valiyeva, S. S. Raximova	
Musiqiy-ritmik harakatlarning asosiy komponentlari va ularni rivojlantirishda SI imkoniyatlari	667
O. A. Shodiyeva	
Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik xususiyatlari ..	672
Y. R. Azzamov	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsion yondashuv asosida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari	676
Yakubova Zilola Zikirovna	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarda mas'uliyatni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	679
Teshayeva Dilnoza Chori qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat turlari asosida estetik tarbiyalash masalalari.	684
Yuldasheva Dilshoda To'liqinova	
Профессиональная рефлексия как фактор развития научного интеллекта будущего педагога в системе педагогического образования	688
Анварова Хуснора, Исохонова Азиза	
Толерантность в мультикультурном обществе	692
Бекбосынова З. К.	
Методика работы над ошибками как средство повышения грамотности	696
Исмаилова Мадинабону	
Методы и подходы к развитию профессиональной лексической компетенции студентов военных направлений	701
Хамидова Нигора Тулкуновна	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYAT TURLARI ASOSIDA ESTETIK TARBIYALASH MASALALARI

Yuldasheva Dilshoda To'liqinova

Farg'ona davlat universiteti

"Maktabgacha ta'lim" kafedrası o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat bilan bog'liq mashg'ulotlarni olib borish yuzasidan ilmiy-amaliy ma'lumotlar berilgan bo'lib, unda tabiatning estetik ong shakllanishidagi ahamiyati, tasviriy faoliyat janrlari, dekorativ-amaliy materiallarni to'g'ri tanlash hamda xalq amaliy san'ati namunalaridan foydalanish haqida bilimlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: tabiat, estetik tarbiya, portret, natyurmort, manzara, dekorativ-amaliy materiallar, xalq amaliy san'ati.

Abstract: The article provides scientific and practical information on conducting classes related to visual activities in preschool educational organizations. It highlights the importance of nature in the formation of aesthetic consciousness, the genres of visual activity, the proper selection of decorative and applied materials, and the use of examples of folk applied art.

Key words: nature, aesthetic education, portrait, still life, landscape, decorative and applied materials, folk applied art.

Аннотация: В статье представлена научно-практическая информация о проведении занятий, связанных с изобразительной деятельностью, в дошкольных образовательных организациях. В ней раскрывается значение природы в формировании эстетического сознания, освещаются жанры изобразительной деятельности, вопросы правильного подбора декоративно-прикладных материалов и использования образцов народного прикладного искусства.

Ключевые слова: природа, эстетическое воспитание, портрет, натюрморт, пейзаж, декоративно-прикладные материалы, народное прикладное искусство.

KIRISH

Hozirgi kunda estetik tarbiya va ekologik tarbiya o'rtasida azaldan mavjud bo'lgan aloqadorlik yanada kuchaymoqda. Insonparvarlik ruhi va maqsadlarning umumiyliigi ularni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bu yaqinlik va o'zaro bog'liqlik estetik tarbiyaning ekologik tarbiyaning eng muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lishida, ekologik tarbiyaning esa o'z navbatida estetik tarbiya jarayonlarining samarali amalga oshishiga zarur shart-sharoitlar yaratib berishida ko'rinadi.

Tabiat eng muhim estetik tarbiya vositasidir. Tabiat turlicha estetik kechinmalarning asosi bo'lib, bu asos tabiatdan ta'sirlanishga, uni ko'ra bilish va eshita olish qobiliyatiga bog'liqdir. Tarbiyalanuvchilarning tabiat qo'yniga uyushtiriladigan ekskursiyalari ularning diqqatini tabiat go'zalligiga qaratish imkonini beradi. Tarbiyalanuvchilar yilning to'rt faslida tabiat o'ziga xos rang olishiga, o'zgarishiga guvoh bo'lادilar, ularda tabiat hodisalariga qiziqish kuchayadi va ular tabiatni asrab-avaylash zarurligini chuqurroq anglab yetadilar. Tarbiyalanuvchilarni tabiat bilan tanishtirish va atrof olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida ular nafaqat tabiiy bilimlarni o'zlashtiradilar, balki tabiatdagi go'zallikni yaratishni amalda ham ko'radilar ^[1].

San'at turlari asosiy tarbiya vositalaridan biridir. San'atning xilma-xil ko'rinishlari va janrlari yordamida tarbiyalanuvchilarda rangtasvir, qalamtasvir haqidagi bilimlar, haykaltaroshlikka doir ko'nikma va malakalar hamda ijodiy qobiliyatlar shakllanadi. Rasm mashg'ulotlari orqali ular tasviriy, amaliy va me'morlik san'ati, o'zbek va chet el san'ati ustalarining ijodi hamda asarlari bilan tanishadilar. Tarbiyalanuvchilarda rasm chizish malakalari shakllantiriladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Natyurmort mustaqil janr sifatida o'z tarixi va an'alariga ega bo'lib, XVII - XVIII asrlar chegarasida Finlyandiya va Gollandiyada yuzaga kelgan. Natyurmort sohasida juda ko'p rassomlar ijod qilgan. Jumladan, N. Nashina, Z. Kovalevskaya, R. Axmedov, M. Kurzin, V. Ufimtsev, O. Motovsyan, V. Kurmakin, L. Salimjonova, T. Konchalovskiy, R. Choriev, V. Roshdestvenskiy va boshqalar^[3]. Manzara janri tabiatni aks ettiruvchi tasviriy san'at asaridir. Manzara janridagi asarlar borliqning go'zalligini ochib beradi va tabiat obrazi orqali kishining his-tuyg'ulari hamda hayajonlarini uyg'otadi.

Manzara janri hozirgi zamon O'zbekiston san'atining eng kuchli yo'nalishlaridan biridir. Musavvirlar ona o'lka jamolini tasvirlash orqali tabiatning milliy boylik ekanini, u insonda go'zallikka muhabbat uyg'otishini ifoda etadilar. Manzara janrini boyitishda davr nafasini o'tkir his qila oluvchi nozik didli rassom U. Tansiqboyev, o'ziga xos amaliy manzara ustasi N. Qoraxon hamda lirik va nafis tuyg'ular ifodachisi G. Temurovlarning xizmati katta. Rus rassomlari N. N. Levitan, Vasilev, Savrasov va boshqalar ham manzara janrida ko'plab asarlar yaratganlar^[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tasviriy san'atda turli xil janrlar mavjud. Janr deganda, odatda, badiiy asarning ma'lum turi tushuniladi. Tasviriy san'atning asosiy janrlari quyidagilar: jang manzaralarini aks ettiruvchi janr, tarixiy janr, peyzaj, portret va hokazolar. Portret, natyurmort va manzara janrlari haqida to'xtalib o'tamiz. "Natyurmort" termini XVIII asrda paydo bo'lgan. Bu davrgacha esa jonsiz predmetlarni tasvirlovchi suratlar asli golland tilidan kirib kelgan nemischa atama bilan (ma'nosi: harakatsiz natura) nomlab kelingan edi^[2].

Janr atamasi – natyurmort esa fransuz tilidan tarjima qilinganda "jonsiz natura" degan ma'noni anglatadi. Unda ro'zg'or buyumlari, gullar, mevalar, uy hayvonlari va parrandalar tasvirlanadi. Natyurmort tasviriy san'atning odatiy narsalar dunyosi nafosati va go'zalligini tarannum etuvchi mustaqil janri hisoblanadi. Ko'plab rassomlar o'z asarlarining ma'no-mundarijasini yanada to'liq ochib berish maqsadida natyurmortdan foydalanadilar, ba'zan esa natyurmortlar shu qadar muhim ahamiyat kasb etadiki, kompozitsiyaning o'ziga xos markaziga aylanib qoladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tabiat bolaning ma'naviy dunyosini boyitishning bitmas-tuganmas manbaidir. Har bir inson bolaligini eslaganda, avvalo, tabiat bilan bog'liq bo'lgan turli voqea va hodisalarni: qushlar ovozi, osmonga uchayotgan samolyotga tikilib, yam-yashil o'tloqlar va bog'lar, anvoyi gullar, kapalaklar, ariqchalarda oqayotgan zilol suvlar, yulduz, oy, ko'hna yodgorliklar, xalq amaliy san'atining turlari, zamonaviy binolar va ulardagi jozibali naqshlarga soatlab tikilib, ularning qayerdan va qanday paydo bo'lganligiga aqli yetmay uxlab qolganini eslaydi. Bog'chalarda dekorativ rasm ishlash mashg'ulotlarining beqiyos ahamiyati to'g'risida uning tarbiyaviy tomonini qayd qilish bilan birga, bolalarning ijodiy qobiliyatini, badiiy didini o'stirish, shuningdek, kompozitsiyaning asosiy qonunlari bilan tanishtirishdagi rolini uqtirib o'tish lozim.

Dekorativ rasm ishlashga o'rgatish ma'lum tayyorgarlik bosqichini o'tashni talab qiladi, chunki bu mashg'ulotlarda bolalar to'g'ri va egri chiziqlar chizishni mashq qiladilar. Bundan tashqari, bog'cha bolalari bu mashg'ulotlar jarayonida naqshlar tuzish qoidalarini va ishlash usullarini o'rganadilar. Bolalarga chizdirish uchun zarur dekorativ-amaliy materiallarni to'g'ri tanlash kerak.

Buning uchun ishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- tanlangan materialning bolalarning chiza olish imkoniyatlariga mosligi;
- tanlangan dekorativ materiallarning bolalar bog'chasining ta'lim-tarbiya dasturiga muvofiq kelishi.

Dekorativ xalq amaliy san'ati namunalaridan quyidagicha foydalanish mumkin:

- dekorativ xalq amaliy san'ati namunalarining aslini kompozitsiyaga kiritish uchun shakl va rang jihatdan sira o'zgartirmay qo'llash;
- asl namunalarni har xil ko'rinishlarda qo'llash;
- ornamentlarning ayrim elementlaridan foydalanish va ularni mustaqil ravishda kompozitsiyaga kiritish;
- tanlangan namunalarni soddalashtirib qo'llash^[5].

Bolalarning badiiy tarbiyasida va ularga dekorativ rasm ishlashni o'rgatishda xalq amaliy san'ati asos qilib olinmogi kerak^[6].



Shu asosda bolalarning tasvirlash imkoniyatlariga mos bo'lgan xalq ornamentlarining o'ziga xos didaktik namunalarini yaratish zarurati tug'iladi. Bu vazifani bajarish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- xalq amaliy san'atidan didaktik namuna sifatida to'g'ri foydalanish;
- tanlangan didaktik materiallarni tartibga solish va qo'llashning har xil yo'llarini ishlab chiqish uchun shu san'at namunalarini to'g'ri tahlil qilish;
- xalq amaliy san'ati materiallarini keng qo'llaydigan ilg'or tarbiyachilarning eng yaxshi tajribalarini to'plash va tartibga solish ^[6].

Tevarak-atrofni idrok etishni o'stirish bolalarda obrazli tasavvur va taassurotlarni boyitishni, ularning tajribasi va kuzatuvchanligini, badiiy faoliyatlarning jamiyat va kishilar faoliyatidagi amaliy roli haqidagi tushunchalarni boyitishni maqsad qilib qo'yadi. Shuningdek, bu darslar bolalarda san'at haqida, badiiy tilning ifoda vositalari haqida tushuncha va bilimlarni boyitishni ham nazarda tutadi. Tasviriy san'at haqidagi suhbat darslari bolalarni faqat estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qilibgina qolmasdan, axloqiy, g'oyaviy-siyosiy va mehnat tarbiyasini takomillashtirishga ham yordam beradi. Shu maqsadda MTT tasviriy faoliyat dasturida o'zbek, rus va chet el rassomlarining hayoti hamda yaratgan asarlarini o'rganish tavsiya qilinadi. Bunda tasviriy san'at asarlarini o'qiy olish va tushunish, san'at asarlariga o'z munosabatlarini bildirish, bolalarning badiiy fikrlashini rivojlantirish maqsad qilib qo'yiladi. Yuqorida aytilgan vazifalarni amalga oshirishda san'at asarlari namunalarini tanlash, ularning soni va sifatiga e'tibor berish muhim. Bolalarga rasm ishlatishda qiziqarli usullardan biri dekorativ xalq amaliy san'atida qo'llaniladigan bodom, o'rik, qalampir, olcha, anor, barg, gullar hamda paxta tasviridan foydalanishdir ^[7].

Natijada bolalarga tanish bo'lgan gul va barglardan iborat dekorativ rasmdan bir muncha umumlashgan va naqshda bir tekisda takrorlangan bir qancha namunalar yaratildi. Tarbiyachilarning mashaqqatli va puxta o'ylab olib borayotgan ishlari badiiy materiallarga qiziqish uyg'otishga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlaridagi bolalarning dekorativ rasmlarini tartibli qilib ishlashlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. O'tkazilgan mashg'ulotlar jarayonida qo'llanilayotgan xalq amaliy san'ati namunalarining o'quv-tarbiya ishlarida muhim material bo'lib xizmat qilishi ko'rsatildi. Shuningdek, tarbiyachilarning olib borayotgan tarbiyaviy ishlari ko'pgina namunalarni birmuncha o'zgartirib foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Xalq naqshlari o'simlik shakllarining muayyan tartibini aniqlab olingandan keyin kompozitsiyani, rang kombinatsiyalarini (o'rinni almashuvini) va bajarishning texnik usullarini izchil ravishda murakkablashtira borish lozimligi ham ma'lum bo'ldi. Dekorativ xalq amaliy san'ati materiallarining elementlari, shakl va kompozitsiyalarini yuqorida ko'rsatilgan izchillik asosida to'g'ri joylashtirish, ularning ba'zilarini o'zgartirish va soddalashtirish, tavsiya qilinadigan namunalarni oddiydan murakkabga o'tish jarayonlari asosida tartibga solish, ornamentning xalqchilligi va namunalarning estetik ta'sirini saqlab qolgan holda materiallarni puxta o'zlashtirish imkonini beradi.

Bir so'z bilan aytganda, tasviriy faoliyatda dekorativ rasm ishlash mashg'ulotlarini o'tkazish, mahalliy materiallardan unumli foydalanish ta'lim-tarbiya borasida beqiyos katta ahamiyatga ega. Shuning uchun har bir bog'cha tarbiyachisining bu masalaga alohida e'tibor berishi olib borilayotgan ishlarning samaradorligi yanada yuqori bo'lishiga olib keladi. Ko'p yillik kuzatishlar va o'tkazilgan tadqiqotlar faoliyatlar doirasida dekorativ ishlarning asosini xalq amaliy san'ati tashkil etmog'i lozimligini ko'rsatadi. Bunday xalq amaliy san'atida sayqal topib, haqiqiy san'at asarlariga aylangan xalq naqshlari asosida bolalarning tasviriy imkoniyatlariga mos va o'zining badiiy qiymatini yo'qotmagan didaktik namunalar yaratish vazifasi tug'iladi. Bu vazifani to'g'ri hal etmoq uchun quyidagilarga amal qilmog'imiz zarur:

- xalq dekorativ-amaliy san'atidan didaktik namuna sifatida foydalanish, uni tartibga keltirish va qo'llashning turlicha usullarini ishlab chiqish uchun shu san'at namunalarini to'g'ri tanlash;
- bolalar bilan ishlashda xalq dekorativ-amaliy san'ati namunalarini faoliyatlar jarayonida keng qo'llaydigan ilg'or ijodkor pedagoglarning eng yaxshi tajribalarini to'plash hamda tartibga solish kerak.

Xalq dekorativ-amaliy san'ati namunalarini to'plash va ularni tartibga solib bolalar bilan ishlash shuni ko'rsatadiki, ushbu san'at materiallaridan xilma-xil ko'rinishlarda foydalanish imkoniyati bor ekan. Ana shulardan mazmun va shaklan eng muhimlari quyidagilar deb qaraldi:

- bolalarga xalq dekorativ-amaliy san'ati namunalari naqsh namunasini berish;
- naqsh namunasi kompozitsiyasi, shakli va rangini o'zgartirmasdan chizish orqali o'rganish, mukammal naqsh namunalarini soddalashtirish va ularni kompozitsiyaga o'zgartirib kiritish;
- mustaqil ijodiy naqsh tuzish jarayonida bolalarning diqqatini tavsifli ko'rinishdagi milliy naqshlarning kompozitsion sxemasi va unsurlariga qaratish;
- dekorativ-amaliy san'at haqida suhbat o'tkazish.



Bolalar o'zlariga tanish, uncha murakkab bo'lmagan naqshlarni zo'r qiziqish bilan chizdilar.

Ammo xalq dekorativ-amaliy san'ati namunalaridan foydalanishda asosan quyidagi yo'llar ma'qul deb qaraldi:

- xalq dekorativ-amaliy san'ati namunalarining kompozitsiyasi, shakllari, ranglarini sira o'zgartirmagan holda ko'chirish;
- namunalarning har xil variantlaridan foydalanish;
- xalq naqshlarining ayrim usullaridan foydalanish va ulardan mustaqil ravishda kompozitsiya tuzish;
- xalq naqshlarini bolalarning tasviriy imkoniyatlariga moslashtirish maqsadida kompozitsiyaga o'zgarishlar kiritish;
- naqsh namunalarini soddalashtirib kompozitsiyaga kiritish.

Lekin xalq amaliy san'ati namunalarini aynan o'zgartirmay ko'chirish uchun quyidagilarga rioya qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- naqshlarda kompozitsion shakllarning simmetrik tarzda joylashuviga;
- shakllarda shakl va qismlarning ko'p bo'lmashligiga;
- tasvirlashda texnik usullarning murakkab emasligiga.

Yuqorida ko'rsatilgan, bolalarga hech qanday o'zgarishsiz namuna sifatida tavsiya etilgan naqshlar muhim ahamiyatga ega. Ular bolalarning badiiy tasavvurlarini boyitadi, ularni xalq naqshlarining aniq ritmini tushunishga o'rgatadi. Chizish uchun tavsiya etilgan birinchi naqsh to'rtburchakdan, ikkinchisi uchburchak unsurlarining ritmik, maqomli joylashuvidan iborat bo'lib, barg va gullardan tashkil topgan nafis ritmli qatorni vujudga keltiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at predmeti mashg'ulotlarida quyidagi holatlarga rioya qilish kerak bo'ladi:

- tasviriy san'at mashg'ulotlarida amalga oshiriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlarini uzviy bog'liq ravishda amalga oshirish;
- bunda asosiy e'tiborni g'oyaviy, siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasiga qaratish;
- pedagogikaning didaktik tamoyillariga qat'iy rioya qilish;
- ayniqsa, ta'limning tarbiyaviy tamoyiliga, uning g'oyaviy-siyosiy yo'nalishda bo'lishiga, ilmiylik va ko'rgazmalilik tamoyiliga, ta'limning faollik, tizimlilik va ketma-ketlik tamoyiliga, bolalarning yoshiga mos bo'lish tamoyiliga alohida e'tibor berish;
- tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini kun tartibidagi boshqa faoliyat turlari bilan bog'lab olib borishga erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O. K. Apuxtin. Tasviriy san'at darslari va samaradorligini oshirish omillari. – T., 1990-y.
2. B. O. Oripov. Tasviriy san'at darslari va samaradorligini oshirish omillari. – T., 1997-y.
3. B. Azimov. "Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi". – T.: "O'qituvchi", 1994-y.
4. N. A. Vetlugina. "Bolalar bog'chasida estetik tarbiya". – T.: "O'qituvchi", 1997-y.
5. N. P. Sakulina, T. S. Kamarova. "Bolalar bog'chasida tasviriy faoliyat". – T.: "O'qituvchi", 1996-y.
6. R. Xasanov. Mavzu asosida rasm chizish jarayonida estetik tarbiya. – T.: "O'qituvchi", 1990-y.
7. Fozilova Odina Nabiyevna, To'ychiyeva Shoxidaxon Qahramon qizi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda turli xil rasm chizish texnikasi orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish // CAJMRMS. 2024. № 8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarda-turli-xil-rasm-chizish-texnikasi-orqali-ijodiy-qobiliyatlarni-rivojlantirish> (дата обращения: 07.03.2026).
8. Xasanov Xolboy Xasanovich. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabga tayyorlov guruhi bolalarini xalq amaliy bezak san'ati orqali estetik ruhda tarbiyalash metodikasi // scientific and theoretical conference "decorative and applied art of the turkic world: history, modernity, and future prospects". October 23, 2025. URL: https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00114/114_i_20251029_101727_1.50.pdf

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.